

**MONETAR SIYOSAT TUSHUNCHASI VA UNING
IQTISODIYOTDAGI O'RNI****Qobiljonov Dostonbek***Andijon davlat texnika instituti**Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv**fakulteti "Bank ishi va audit" yo'nalishi**4-kurs K-116-21 guruh talabasi**Ilmiy rahbar: dots.M.A.X.Eshonov*

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy barqarorlik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishini ta'minlashda monetar siyosat muhim o'rin tutadi. Monetar siyosat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi inflyatsiya darajasini nazorat qilish, pul massasini tartibga solish, foiz stavkalarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan monetar siyosat iqtisodiyotda inflyatsiyani pasaytirish, pul-kredit bozorini rivojlantirish, bank tizimini mustahkamlash va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan. Mazkur maqolada monetar siyosatning nazariy asoslari, uning asosiy vositalari, iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan monetar siyosat tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, Markaziy bank, pul-kredit siyosati, inflyatsiya, foiz stavkalari, pul massasi, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy tartibga solish, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация: В условиях рыночной экономики монетарная политика играет важную роль в обеспечении экономической стабильности и роста макроэкономических показателей. Монетарная политика представляет собой процесс воздействия на экономику через денежно-кредитные инструменты,



реализуемые Центральным банком. Основными целями являются контроль над уровнем инфляции, регулирование денежной массы, управление процентными ставками и обеспечение финансовой устойчивости. В Республике Узбекистан проводимая Центральным банком монетарная политика направлена на снижение инфляции, развитие денежно-кредитного рынка, укрепление банковской системы и улучшение инвестиционного климата. В статье рассматриваются теоретические основы монетарной политики, её основные инструменты, механизмы воздействия на экономику и анализ текущей монетарной политики в Узбекистане. Также предлагаются практические рекомендации по решению существующих проблем.

Ключевые слова: монетарная политика, Центральный банк, денежно-кредитная политика, инфляция, процентные ставки, денежная масса, финансовая устойчивость, банковская система, инвестиционный климат, экономический рост, макроэкономическое регулирование, экономическая стабильность.

Abstract: In a market economy, monetary policy plays a crucial role in ensuring economic stability and promoting the growth of macroeconomic indicators. Monetary policy is the process of influencing the economy through monetary and credit instruments implemented by the Central Bank. Its main objectives are to control inflation, regulate the money supply, manage interest rates, and ensure financial stability. The monetary policy conducted by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan is aimed at reducing inflation, developing the monetary and credit market, strengthening the banking system, and improving the investment climate. This article examines the theoretical foundations of monetary policy, its main tools, mechanisms of economic impact, and the analysis of Uzbekistan's current monetary policy. Practical recommendations are also proposed to address existing challenges.

Keywords: monetary policy, Central Bank, monetary-credit policy, inflation, interest rates, money supply, financial stability, banking system, investment climate, economic growth, macroeconomic regulation, economic stability.

KIRISH



Zamonaviy iqtisodiyotni barqaror boshqarish va rivojlantirishda monetar siyosat yetakchi tartibga solish vositalaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bevosita aralashuvdan ko'ra, iqtisodiyotga pul-kredit vositalari orqali ta'sir ko'rsatishni afzal biladi. Monetar siyosat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosat turi bo'lib, uning asosiy maqsadi pul massasi, foiz stavkalari va kredit hajmini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, iqtisodiyotda bozor tamoyillariga asoslangan islohotlar boshlanib, moliya-kredit tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan pul-kredit siyosati islohotlari mamlakatda inflyatsiyani pasaytirish, bank tizimi barqarorligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratildi. Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda olib borilayotgan monetar siyosat bozor mexanizmlari orqali pul massasini tartibga solish, inflyatsiyani maqsadli darajada ushlab turish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni ko'zlamoda. Shu bilan birga, iqtisodiyotda monetar siyosat vositalarining ta'sir kuchi va mexanizmlarini kuchaytirish, kredit va foiz siyosatini optimallashtirish, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar mavjud. Bu esa monetar siyosatning iqtisodiyotdagi o'rnini ilmiy asosda o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishni talab etadi. Ushbu maqola monetar siyosatning nazariy asoslari, uning iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Monetar siyosatning nazariy va amaliy jihatlarini bo'yicha o'zbekistonlik va xorijiy iqtisodchilar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, iqtisod fanlari doktori Sh.A. Nurmuxamedov o'z tadqiqotlarida Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yoritgan. Muallifning ta'kidlashicha, O'zbekiston sharoitida monetar siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani nazorat qilish, pul massasini tartibga solish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdir. U monetar siyosat vositalarini moslashuvchan qo'llash



zarurligini va bank tizimi orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish imkoniyatlarini asoslab bergan. Iqtisod fanlari nomzodi D.S. Ergashev esa o'z ilmiy ishlarida monetar siyosat vositalarining – qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zaxira talablari, ochiq bozor operatsiyalari – iqtisodiyotga ta'siri va ularning samarali qo'llanilish shartlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, monetar siyosatni samarali yuritish uchun pul-kredit bozori infratuzilmasini rivojlantirish va Markaziy bankning mustaqilligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Xorijiy olimlardan M. Fridman, J. Keyns va S. Mishkin monetar siyosat nazariyasini rivojlantirganlar. Ularning izlanishlarida monetar siyosatning inflyatsiya va ishsizlik darajasiga ta'siri, foiz stavkalari orqali investitsion faollikni rag'batlantirish mexanizmlari va pul massasining iqtisodiyotdagi muvozanatni ta'minlashdagi roli keng yoritilgan.

Ushbu maqolada quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy tahlil va umumlashtirish usuli – monetar siyosatga oid nazariy va amaliy manbalarni o'rganish va tahlil qilish;
- Taqqoslash usuli – O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar monetar siyosati tajribasini solishtirish;
- Statistik tahlil – Markaziy bankning inflyatsiya va foiz stavkalari bo'yicha ma'lumotlarini tahlil qilish;
- Ekspert baholash usuli – iqtisodchi mutaxassislar fikrlari asosida takliflar ishlab chiqish.

Ushbu metodlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning o'rni, uning samaradorligi va rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan monetar siyosatning bugungi holatini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi. Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati inflyatsiyani pasaytirish, pul massasini tartibga solish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Xususan, 2017–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bosqichma-bosqich inflyatsiya maqsadlarini belgilash, qayta moliyalashtirish stavkasini tartibga solish va ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmoqda.



Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, yillik inflyatsiya darajasi 2017-yildagi 14,4 foizdan 2023-yilda 8,8 foizgacha pasaytirilgan. Bu esa pul-kredit siyosatining maqsadli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, qayta moliyalashtirish stavkasi 2020-yildagi 16 foizdan 2024-yilda 14 foizgacha pasaytirilgani banklarning kreditlash faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ochiq bozor operatsiyalari hajmining ortishi, banklararo kredit bozorining faol rivojlanishi pul-kredit bozoridagi likvidlikni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Markaziy bank tomonidan majburiy zaxira normalarining bosqichma-bosqich o'zgartirilishi esa banklarning resurs bazasini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, tahlillar shuni ham ko'rsatmoqdaki, monetar siyosat vositalarining iqtisodiyotga ta'siri to'liq va tezkor bo'lib borishi uchun hali hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud. Jumladan:

- monetar siyosat vositalarining bozor mexanizmlariga to'liq moslashmaganligi;
- kredit resurslari qimmatligi va foiz stavkalari yuqoriligi;
- pul-kredit bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy savodxonligi pastligi;
- monetar siyosatning real sektor bilan uzviy bog'liqligining sustligi.

Ushbu natijalar monetar siyosatni yanada takomillashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatmoqda.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan monetar siyosat mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda inflyatsiyani pasaytirish, foiz siyosatini tartibga solish va bank tizimi likvidligini boshqarish bo'yicha erishilgan natijalar monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri borligini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu siyosatning samaradorligi va ta'sir doirasini yanada kuchaytirish uchun bir qator muammolar hal etilishi zarur. Birinchidan, Markaziy bank tomonidan belgilangan foiz siyosati va qayta



moliyalashtirish stavkalari iqtisodiyotni kreditlash uchun yetarlicha qulay sharoit yaratmayapti. Kredit foiz stavkalarining yuqoriligi tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun moliyaviy resurslardan foydalanishni cheklamoqda. Banklar yuqori foiz stavkalari bilan kredit taklif qilishi real sektor faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, Markaziy bankning foiz siyosati bozor talab-taklifiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi zarur. Ikkinchidan, pul-kredit bozorining infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagani, banklararo kredit bozorining cheklanganligi, ochiq bozor operatsiyalarining faollashmaganligi likvidlikni samarali boshqarishga to'sqinlik qilmoqda. Monetar siyosat vositalarining to'liq ishlashi uchun moliyaviy bozorlarni yanada rivojlantirish, banklar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish zarur. Uchinchidan, monetar siyosatning real sektor bilan uzviy bog'lanishi hali ham sust. Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish, investitsiya va bandlik jarayonlariga ta'sir kuchini oshirish uchun moliyaviy oqimlarni real sektorga yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Buning uchun bank tizimi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish strategiyasi takomillashtirilishi zarur. To'rtinchidan, aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi pastligi sababli monetar siyosat vositalaridan to'liq foydalanilmayapti. Pul-kredit siyosati natijalari bozor ishtirokchilariga yetarlicha tushuntirilmayapti, bu esa monetar siyosatning samarali ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, Markaziy bank va tijorat banklari aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli targ'ibot ishlarini kuchaytirishi zarur.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va monetar siyosatning samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- foiz siyosatini bozor talab-taklifiga moslashtirish va kredit foiz stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish;
- pul-kredit bozori infratuzilmasini rivojlantirish va ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish;
- banklararo kredit bozorini faollashtirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish;



- moliyaviy oqimlarni real sektorga yo'naltirish strategiyasini takomillashtirish;
- aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar monetar siyosatning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirib, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir davlat iqtisodiy barqarorlik va o'sish sur'atlarini ta'minlashda pul-kredit siyosatini to'g'ri yo'naltirishi zarur. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda Markaziy bank tomonidan olib borilgan monetar siyosat natijasida yillik inflyatsiya pasaytirilishi, foiz stavkalari qayta ko'rib chiqilishi, ochiq bozor operatsiyalarining yo'lga qo'yilishi kabi muhim yutuqlarga erishildi. Bu esa mamlakatda pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga solish jarayonlari bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Biroq, mavjud natijalarga qaramay, monetar siyosat imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan. Kredit resurslari hali ham qimmat, banklararo bozor faol emas, iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy savodxonligi yetarli darajada emasligi tufayli monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sir kuchi cheklanganligicha qolmoqda.

Kelajakda O'zbekiston iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Foiz siyosatini yanada moslashuvchan qilish va iqtisodiyot subyektlari uchun qulay kredit shartlarini yaratish;
- Ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish va banklararo kredit bozorini faollashtirish;
- Moliyaviy resurslarni real sektor rivojiga yo'naltirish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- Aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.



Shu orqali Markaziy bank olib borayotgan monetar siyosat nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga ham aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PF–101-son Farmoni “O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/5974314> (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi pul-kredit siyosati asoslari. – www.cbu.uz (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
3. Nurmuxamedov Sh.A. O'zbekistonda monetar siyosat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash strategiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 228 b.
4. Ergashev D.S. Monetar siyosat vositalarining iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2023. – 192 b.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – New York: Pearson Education, 2019. – 736 p.
6. Friedman M. A Monetary History of the United States, 1867–1960. – Princeton: Princeton University Press, 2020. – 860 p.